




Tadqiqot.uz



ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ ТИЗИМЛАРНИ ҚЎЛЛАШ: ФИЛОЛОГИЯ ВА ПЕДАГОГИКА СОҲАСИДА ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАР ВА РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ

**МАВЗУСИДАГИ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ - АМАЛИЙ
МАСОФАВИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ**

1 МАЙ, 2020 | ТОШКЕНТ



**COVID-19NI
BIRGA YENGAMIZ!**

CONFERENCES.UZ



**"ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ
ТИЗИМЛАРНИ ҚЎЛЛАШ: ФИЛОЛОГИЯ ВА
ПЕДАГОГИКА СОҲАСИДА ЗАМОНАВИЙ
ТЕНДЕНЦИЯЛАР ВА РИВОЖЛАНИШ
ОМИЛЛАРИ"**

**"ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В
СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ:
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ФАКТОРЫ
РАЗВИТИЯ В ФИЛОЛОГИИ И ПЕДАГОГИКЕ"**

**"DIGITAL TECHNOLOGIES IN MODERN
EDUCATION: CURRENT TRENDS AND
DEVELOPMENT FACTORS IN PHILOLOGY AND
PEDAGOGY"**

45.Maxmudova Zulxumor Ikromjon qizi O'ZBEK TILIDA MORFOLOGIK USULDA SIFATLARNING YASALISHI.....	143
46.Mustafayev Shaxboz Baxtiyorovich AVTOMATLASHTIRILGAN VA MASHINA TARJIMALARINING MUAMMO VA AFZALLIKLARI	145
47.Sodiqova Yulduz Furqatovna INNOVATIVE METHODS OF LEARNING OF FOREIGN LANGUAGES. MULTIMEDIA AND COMPUTER TECHNOLOGIES.....	148
48.Aziza Musoeva Botirovna TEACHER PROFESSIONAL DEVELOPMENT AND ITS LINK WITH THE CEFR.....	151
49.Negova Feruza Sharifovna THE IMPORTANCE OF AUTHENTIC MATERIALS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE.	156
50.Toshboyeva Munajat PECULIARITIES OF INTERNET TECHNOLOGIES IN DEVELOPING STUDENTS' COMMUNICATIVE COMPETENCE.....	158
51.Lolayeva Durdona Raxmatovna KOMPYUTER LINGVISTIKASINING F ILOLOGIYA SOHASIDAGI AHAMIYATI.....	160
52.Yusupova Mahliyo YURIDIK TIL NAZARIYASI.....	164
53.Юсупова Маҳлиё АЛИШЕР НАВОЙИ ВА АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ ИЖОДИДА ДЎСТ ОБРАЗИ ТАЛҚИНИ.....	166
54.Хуршида Нишоновна ТИЛ - ВОСИТА, НУТҚ - ЖАРАЁН.....	169
55.Kulieva Durdona Asliddinovna O'ZBEK VA XITOY ADABIYOTI SHE'RIYATIDAGI OBRAZ O'XSHASHLIGI.....	171
56.Бобожонова Муниса Мухаммадшукур кизи, Сулейманова Наргиза Мардоновна, ПОВЫШЕНИЕ МОТИВАЦИИ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ К ИЗУЧЕНИЮ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА ПРИ ПОДДЕРЖКЕ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ.....	174
57.Ochilova Maftuna Doniyor qizi, Balyasnikova Marina Aleksandrovna SOME DATA OF COMPUTATIONAL STYLISTICS IN ANALYSIS OF REECHOING REPETITION IN SHAKESPEAREAN TRAGEDIES.....	178
58.Темирова Ферузабону Темир қизи МУЛОҚОТ ЖАРАЁНИДА КИНЕТИКАНИНГ РОЛИ ВА УНИНГ НАЗАРИЙ ТАДҚИҚИ.	181
59.Suvonova Nigorabonu Nizomiddinovna, Islamova Ozoda FRANSUZ TILIDA FRAZEOLOGIK IBORALAR STRUKTURASIGA DOIR.....	183



Mustafayev Shaxboz Baxtiyorovich
Samarqand davlat chet tillari instituti magistranti

AVTOMATLASHTIRILGAN VA MASHINA TARJIMALARINING MUAMMO VA AFZALLIKLARI

Annotatsiya. Maqolada badiiy matnlar tahlili va tarjimasida elektron dasturlardan foydalanish imkoniyatlari hamda avtomatlashtirilgan va mashina tarjimasining o'ri, kamchiliklari va afzalliklari kabi muhim vazifalar hal qilinadi. Ushbu masalalarni hal qilishda olib borilgan tadqiqotlarga va olingan tajribalar natijalariga binoan, ularni o'quv jarayoniga tatbiq etish tajribalari keltirilgan va uchraydigan muammolarni yechimi ifodalangan.

Kalit so'zlar: tarjima, mashina tarjimasi, avtomatlashtirilgan tarjima, onlayn tarjimon, lug'atlar, google translate.

XXI asr - raqamli texnologiyalar asri. Jahon iqtisodiyotining globalizatsiyasi hamda xalqaro munosabatlarning mustahkamlanishi, xalqaro maydonda samarali hamkorlik aloqalarini boshlashga umid bog'lagan tashkilotlarni xalqaro kommunikatsiyalar va ish muloqotlaridagi professionallikni rivojlantirishlariga turtki bo'lmoqda. Shuning uchun ham tarjima sohasiga talab ortmoqda va hozirda bu soha xalqaro bozorda biznes qurishning asosiy qurollaridan biri hisoblanadi. Tarjima - muayyan tilda og'zaki yoki yozma ravishda bayon qilingan fikrni boshqa til vositalari bilan qayta ifodalash bo'lib, xalqlar o'rtasida do'stlik va hamkorlik o'rnatilishi, ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashuvi, madaniyat, san'at va adabiyotlarning bir-biriga ta'siri, tillarning boyishida muhim rol o'ynaydi [1].

Inson va texnologik vositalarning o'zaro aloqasini ko'rib chiqish uchun hozirgi kunda mavjud bo'lgan tarjimaning ikki turini farqlash muhim:

1. Avtomatlashtirilgan tarjima (machine-assisted translation (MAT)). Bu holatda dastur tarjimonga tarjima qilish uchun yordam beradi. O'z navbatida, avtomatlashtirilgan tarjimaning quyidagi shakllari mavjud:

- qisman avtomatlashtirilgan tarjima - bu holda tarjimon tarjima qilish uchun elektron lug'atlar yoki boshqa elektron resurslarni qo'llaydi:

- faoliyati chegaralangan tizimlar - kompyuter faqat qat'iy strukturadagi gaplarni tarjima qilishga tizimlashtirilgan (ammo shunday tarjima qiladiki, uning ortidan to'g'rilashga hojat qolmaydi), tizimga mos kelmagan joylarini esa insonga qoldiradi [2].

2. Mashina tarjimasi (machine translation (MT)) - bir tabiiy tildan ikkinchi tilga matnni raqamli hisoblash mashinalari va kompyuterlar yordamida tarjima qilish. EHM va kompyuterlar uchun dasturlar tuzish, matematik lingvistika va amaliy lingvistika kabi yo'nalishlar bilan chambarchas bog'liq [3]. Bunday tarjima turida tarjima muharrir ishtirokisiz amalga oshiriladi. Mashina tarjimasi katta hajmdagi til juftliklarini bir-biriga solishtirish asosida ishlaydi. Til juftliklari - bir tilda sintaktik birliklar saqlanadigan va ikkinchi tilda esa unga mutanosib gap va formulirovka saqlanadigan matnlardir [4]. Bunday til juftliklari uchun misol sifatida parallel matnlar xizmat qiladi. Mashina tarjimasining yuqori texnologiya sifatidagi afzalliklaridan biri uning katta hajmdagi matnlar va jumalarning xotirada saqlab qolishidir. Mashina tarjimasi doirasida inson va EHMning o'zaro aloqasining bir nechta turi mavjud:

- birlamchi tahrir - tahrir qilishning bir shakli bo'lib, bunda tarjimon maxsus dastur matnga ishlov berishidan oldin uni tahrirlaydi, bu holatda matn ko'z yugurtirish mobaynida ortiqcha komponentlardan xalos bo'ladi va matn ishlov berish uchun tayyor holatga keladi;

- umumiy tahrir - bunda tarjimon o'zgartirishlarni dasturning ish protsessi davomida



kiritib boradi va shu bilan tarjimaning murakkab masalalarini hal qiladi;

- yakuniy tahrir - ushbu tahrir turida dasturlashtirilgan tizim matnga ishlov berishni yakunlaydi va shundan so'ng tarjimon tomonidan dastur tomonidan qilingan xato va kamchiliklar tuzatiladi hamda tahrirlanadi;

? aralash yoki gibrid tahrir - tahrir qilishning shunday turiki, bunda mashina tarjimasi protsessi bir vaqtning o'zida ham birlamchi ham yakuniy tahrirni o'z ichiga olishi mumkin [5].

Qayd etib o'tish kerakki, hozirgi kunda mashina tarjimasi bilan ish natijalari mukammallikdan yiroq bo'lib, tarjima qilingan matndagi xato va kamchiliklarni aniqlash uchun mukammal tahrirni o'tkazish kerak. Tayyor matnning leksik butunligiga o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, elektron hisoblash mashinalari sodda gaplar va iboralar bilan muvaffaqiyatli tarjima qilishadi, biroq gaplardagi kelishiklar, nutq oborotlari hamda mantiqiy urg'ularni tarjima qilishda tez-tez xato qilishadi [6]. O'zbek tilini tarjima qilish algoritmlari hozirgi vaqtda asta-sekin murakkablashtirilmoqda, shu sababli o'zbek tilidagi sodda gaplarni ham boshqa tilga tarjima qilishda jiddiy kamchiliklar uchramoqda.

Matnni tarjima va tahrir qilishning barcha variantlarini tahlil qilish orqali tarjima qilishning hozirgi vositalarini ko'rib chiqish imkoniyati paydo bo'ladi. Raqamli texnologiyalar bozorida mashhur dasturchilar xalqaro muloqotda muhim hisoblangan tarjima sohasini nazardan chetda qoldirishayotgani yoq. Google va Microsoft singari texnogigantlar grammatika va fonetika qoidalariga asoslanib so'zlarni, gaplarni, jummalarni, iboralarni va katta hajmdagi matnlarni tarjima qiladigan hamda eshittirib beradigan mobil dasturlarni ishlab chiqishdi. Quyida hozirgi kunda mavjud bo'lgan elektron resurslar va informatsion platformalar klassifikatsiyasi keltiriladi:

- a) mashina tarjimasi tizimi (MTT). To'liq avtomatlashtirilgan tarjimani amalga oshiradi;
- b) Translation Memory funksiyasi mavjud tizimlar. Bunday tizimlar avtomatlashtirilgan tarjima tizimlarida ishlash imkoniyatini beradi (IBM
- c) Translation Manager, D?j? Vu, Promt va b.) [7];
- d) onlayn tarjimonlar - matn tarjimasi internet aloqasi mavjud bo'lgan holda brauzer oynasida amalga oshiriladi (Google, Yandex, Deeple, Bing va b.);
- e) onlayn lug'atlar (PROMT, ABBYY Lingvo, Multitran va b.) [8];
- f) offlayn lug'atlar (Google translate, Deeple, ABBYY Lingvo va b.);
- g) internet tarmog'idagi tarjimonlik xizmati.

Xulosa o'rnida aytib o'tishim mumkinki, hozirgi kunga kelib tizimlashtirilgan mashina tarjimasi tarjima bilan shug'ullanadigan insonlarga munosib raqobatchi bo'lmoqda.

Kompyuter texnologiyalari jabhasida bo'layotgan doimiy innovatsion rivojlanish mashina tarjimasi dasturlarining mukammal tarjima qilish qobiliyatini oshirib bormoqda. Shu sababli ham kundan kunga tarjima dasturlariga bo'lgan talab ortib bormoqda. Tabiiyki, hozirda mashina tarjimasida tarjima qilish algoritmi mukammal emas. Google onlayn tarjimonida tarjima 150 dan ortiq til doirasida amalga oshiriladi, biroq sifatli tarjima, asosan, 10 ta til doirasida amalga oshadi. Tarjima sifati tarjima qaysi tillar doirasida amalga oshirilishiga, tillarning grammatik, sintaktik va leksik mutanosibligiga, matnning tematikasiga va uslubiga bog'liq. Shu sababli ham tarjima qilinishi kerak bo'lgan hujjat qanchalik to'g'ri tuzilgan bo'lsa, tarjima ham shu qadar sifatli chiqadi.



Adabiyotlar:

1. G'. Salomov. Tarjima nazariyasiga kirish. - Toshkent: "O'qituvchi", 1978;
2. Могилев А. В. Технологии обработки текстовой информации. Технологии обработки графической и мультимедийной информации. - СПб.: БХВ-Петербург, 2010. - 304 с.
3. Wikipedia [Elektron qo'llanma] Mashina tarjimas URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Mashina_tarjimas
4. Семенов А. Л. Теория перевода: [учебник для вузов]. - М.: Академия, 2013. - 217 с.
5. Lingotech [Elektronqo'llanma] Редактирование машинного перевода: цели, средства и возможный выигрыш URL: <http://lingotech.ru/articles/redaktirovanie-mashinnogo-perevoda-celi-sredstva-i-vozmozhnyy-vyigrysh.html>
6. Rahimov A. Kompyuter lingistikasi asoslari. - T.: Akademnashr, 2011. - 160b.
7. Fonetix [Elektron qo'llanma] Технология Translation Memory URL: http://www.fonetix.ru/public_.php?num0=0002
8. Изюмов, А.А. Компьютерные технологии в науке и образовании : учебное пособие / А.А. Изюмов, В.П. Коцубинский ; Томский Государственный Университет Систем Управления и Радиоэлектроники (ТУСУР). - Томск : Эль Контент, 2012. - 150 с.

TADQIQOT.UZ ТОМОНИДАН ТАШКИЛ ЭТИЛГАН

“ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР: ФИЛОЛОГИЯ ВА ПЕДАГОГИКА СОҲАСИДА ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАР ВА РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ”

(2-қисм)

Масъул мухаррир Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи Файзиев Шахрам Фармонович

Эълон қилиш муддати 1.05.2020

Контакт редакций журналлов: www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амир Темуr пр.1, дом-2.
web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-00-00

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-00-00